



YASHIL IQTISODIYOTDA IQTISODIY O'SISH VA EKOLOGIK BARQARORLIK O'RTASIDAGI MUVOZANAT MUAMMOSI

PhD, dots. **Xursandov Komiljon**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0006-3251-389X
komiljonxursandov1987@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni saqlash masalalari tahlil qilinadi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO), Mark Carney va UNEP kabi mutaxassislarning ishlariga asoslanib, yashil iqtisodiyotga o'tishning ijtimoiy, moliyaviy va siyosiy jihatlari yoritiladi. Maqolada, shuningdek, O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotga o'tishning afzalliklari va qiyinchiliklari, yangi ish o'rinlari yaratish va ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan siyosiy va iqtisodiy yondashuvlar tahlil qilinadi. Yashil iqtisodiyotga o'tishning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun siyosiy iroda, xalqaro hamkorlik, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy tenglikni saqlash muhim rol o'ynaydi. Bu maqola mamlakatlarda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining samarali boshqarilishi uchun zarur bo'lgan ilmiy yondashuvlarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, ekologik barqarorlik, ijtimoiy barqarorlik, moliyaviy sektor, investitsiyalar, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik siyosat, O'zbekiston, yashil siyosat, xalqaro hamkorlik.

ПРОБЛЕМА БАЛАНСА МЕЖДУ ЭКОНОМИЧЕСКИМ РОСТОМ И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ

PhD, доц. **Хурсандов Комилжон**
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В этой статье рассматривается проблема сохранения баланса между экономическим ростом и экологической устойчивостью в процессе перехода к зеленой экономике. Опираясь на работы таких экспертов, как Международная организация труда (МОТ), Марк Карни и UNEP, в статье освещаются социальные, финансовые и политические аспекты перехода к зеленой экономике. Также анализируются преимущества и вызовы этого процесса в контексте Узбекистана, уделяя внимание созданию новых рабочих мест и обеспечению экологической устойчивости через необходимые политические и экономические подходы. Для успешного перехода к зеленой экономике необходимо политическое волеизъявление, международное сотрудничество, финансовая поддержка и сохранение социальной справедливости. Эта статья предоставляет научные подходы, необходимые для эффективного управления процессом перехода к зеленой экономике в странах.

Ключевые слова: зеленая экономика, экономический рост, экологическая устойчивость, социальная стабильность, финансовый сектор, инвестиции, возобновляемая энергия, экологическая политика, Узбекистан, зеленая политика, международное сотрудничество.

THE BALANCE ISSUE BETWEEN ECONOMIC GROWTH AND ECOLOGICAL SUSTAINABILITY IN THE GREEN ECONOMY

PhD, assoc. prof. **Khursandov Komiljon**
Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article analyzes the balance between economic growth and environmental sustainability during the transition to a green economy. Based on works by experts such as the International Labour Organization (ILO), Mark Carney, and UNEP, the article explores the social, financial, and political aspects of transitioning to a green economy. It also examines the advantages and challenges of this transition in the context of Uzbekistan, focusing on creating new jobs and ensuring environmental sustainability through necessary political and economic approaches. Successful implementation of the green economy transition requires political will, international cooperation, financial support, and the preservation of social equity. This paper provides the scientific approaches needed for effective management of the green economy transition in countries.*

Keywords: *green economy, economic growth, environmental sustainability, social stability, financial sector, investments, renewable energy, environmental policy, Uzbekistan, green policies, international cooperation.*

Kirish.

Bugungi global jarayonlar shuni ko'rsatmoqdaki, insoniyat taraqqiyoti nafaqat texnologiyalar, balki ekologik barqarorlik bilan ham chambarchas bog'liqdir. So'nggi o'n yilliklarda sanoatning jadal sur'atlarda rivojlanishi, energiya manbalarining haddan ortiq ekspluatatsiya qilinishi, atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdorining oshishi va tabiatga yetkazilayotgan zarar ekologik muvozanatning izdan chiqishiga olib keldi. Ana shunday sharoitda butun dunyo bo'ylab yangi, barqaror iqtisodiy model — yashil iqtisodiyot konsepsiyasi ilgari surilmoqda. Yashil iqtisodiyot — bu an'anaviy iqtisodiy yondashuvlardan farqli o'laroq, atrof-muhitni asrash, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan tizimdir. Bu modelda iqtisodiy o'sish faqat raqamlar bilan emas, balki tabiiy boyliklarning asrab qolingani holati, chiqindilarning kamayishi va aholining sog'lom turmush tarziga qo'shgan hissi bilan baholanadi. Shu sababli, yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat iqtisodiy manfaat, balki ijtimoiy va ekologik mas'uliyatdir.

Biroq, bu yondashuv bilan bog'liq eng katta savol shundaki: qanday qilib iqtisodiy o'sishni to'xtatmasdan, barqarorlikni ta'minlash mumkin? Ya'ni, taraqqiyot va ekologiyani bir vaqtning o'zida qanday muvozanatga keltiramiz? Bu ziddiyat nafaqat rivojlanayotgan, balki rivojlangan davlatlar uchun ham dolzarb bo'lib, ko'plab siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy qarorlar aynan shu masalaga borib taqalmoqda. Ushbu maqolada aynan shu murakkab muammo — yashil iqtisodiyotdagi iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi qarama-qarshilik tahlil qilinadi va uni yengib o'tish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Yashil iqtisodiyot bugungi kunda global miqyosda dolzarb mavzulardan biri bo'lib, unga oid ilmiy izlanishlar soni yil sayin ortib bormoqda. Iqlim o'zgarishi, resurslar tanqisligi va atrof-muhitga salbiy ta'sirlar kuchaygani sari, olimlar va siyosatchilar e'tibori yashil iqtisodiy modelning afzalliklari va amaliy jihatlari qaratilmoqda. Mazkur adabiyotlar sharhida ushbu muammoni chuqur tahlil qilgan asosiy ilmiy manbalar, ularning mualliflik yondashuvi hamda mavzuga qo'shgan hissi ko'rib chiqiladi.

Masalan, Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan chop etilgan "Working Towards Sustainable Development" nomli hisobotda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini chuqur tahlil qilingan. Unda qayd etilishicha, yashil iqtisodiyotni joriy etish,

ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda ish o'rinlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, lekin bu islohotlar maxsus siyosiy rejalashtirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlovsiz amalga oshirilsa, aks ta'sir berishi ehtimoli ham mavjud. Ushbu asar muammoning iqtisodiy o'sish bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Shu bilan birgalikda, Mark Carneyning "Value(s): Building a Better World for All" nomli asarida yashil iqtisodiyotga o'tishda moliyaviy sektorning o'rni keng yoritiladi. Carney yashil investitsiyalar, uglerod soliqlari va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni asoslab, barqaror rivojlanishning faqat hukumatlar emas, balki xususiy sektor yordami bilan ham erishilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, yashil iqtisodiyotga o'tish — bu iqtisodiy o'sishni to'xtatish emas, balki uni boshqa shaklga keltirishdir (WB, 2020).

Yana bir muhim manba sifatida UNEP (Birlashgan Millatlar Tashkiloti Atrof-muhit bo'yicha dasturi) tomonidan taqdim etilgan "Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication" nomli hisobotni keltirish mumkin. Bu hujjatda yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari, ekologik siyosatni amalga oshirishda uchraydigan to'siqlar va ularga qarshi kurashish strategiyalari bayon etilgan. Hisobotda iqtisodiy o'sish va ekologik xavfsizlik o'rtasidagi bog'liqlik aniq misollar orqali tushuntirilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston kontekstida yozilgan Vaxabov va Xojibakiev (2024) kabi mualliflarning "Yashil iqtisodiyot: nazariya va amaliyot" nomli darsligi diqqatga sazovor. Ushbu manbada yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ekologik siyosatlar, va mavjud muammolar real misollar bilan yoritilgan. Asarda mamlakat miqyosida resurslardan samarali foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy qilish bo'yicha amaliy takliflar berilgan. Bu darslik ayniqsa mintaqaviy tajribalarni o'rganishda foydalidir.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o'tishda iqtisodiy o'sish va ekologik muvozanat o'rtasidagi masala ko'plab mutaxassislar tomonidan turlicha yondashuvlar orqali yoritilgan. Ba'zilar bu o'zgarishni inqilobiy burilish deb baholasa, boshqalar uni asta-sekin va ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi lozim bo'lgan jarayon sifatida ko'radi. Har qanday holatda ham, mavjud adabiyotlar bu muammoning ko'lamdor, ko'p qirrali va dolzarb ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Yashil iqtisodiyotda iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanat muammosini o'rganishda umumiylikdan individualikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonini tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, solishtirish, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yilni "Atrof-muhitni asrash va 'yashil' iqtisodiyot yili" deb e'lon qildi. Bu tashabbus 2024-yil 20-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida ilgari surilgan bo'lib, parlament a'zolari tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlangan. Prezident ushbu nomlanish orqali ekologik muammolarga e'tiborni kuchaytirish, "yashil" texnologiyalarni joriy etish, suv resurslarini tejash, ko'kalamzorlashtirish va chiqindilar muammosini hal qilish kabi masalalarni ustuvor yo'nalish sifatida belgiladi. Takidlab o'tish joizki, "Yashil makon" umummilliy dasturini davom ettirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va aholi salomatligini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilishi ta'kidlandi. Bu yil nomlanishi O'zbekistonning ekologik barqarorlik va "yashil" iqtisodiyotga o'tish yo'lida muhim qadam sifatida baholanmoqda.

Jahonda esa, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) 2012-yilda chop etgan hisobotida yashil iqtisodiyotga o'tishning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilingan. Asosiy e'tibor ijtimoiy

barqarorlikka qaratilgan bo'lib, yashil iqtisodiyotning ijtimoiy jihatdan foydasi, ayniqsa yangi ish o'rinlarining yaratilishi va ekologik toza sanoatlar orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan. Lekin, ILO tahlilida, agar bu jarayonni to'g'ri rejalashtirilmasa, o'tish davrida ayrim ijtimoiy qatlamlarga zarar yetkazishi mumkinligi ta'kidlangan. Jumladan, qayta tiklanuvchi energiya va ekologik sanoatlarning rivojlanishi mavjud kasblarni yo'qotishga olib kelishi mumkin, bu esa yangi ish o'rinlari yaratish jarayonini sekinlashtirishi mumkin. ILO hisobotining asosiy natijasi — yashil iqtisodiyotga o'tishda ijtimoiy jihatlarning ahamiyatini e'tiborga olish zarurati. Bu tahlillar shuni ko'rsatadi: yashil iqtisodiyotga o'tish faqat ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan cheklanmasdan, balki ijtimoiy barqarorlikni ham qo'llab-quvvatlash lozim. Misol uchun, yangi texnologiyalar va ekologik sanoatlar ishlab chiqilayotganda, mavjud ish o'rinlarining yo'qolishini oldini olish uchun ta'lim va qayta tayyorlash dasturlarini joriy qilish samarali bo'lishi mumkin. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy o'sish va ekologik xavfsizlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda yordam beradi.

Carneyning "Value(s): Building a Better World for All" asarida yashil iqtisodiyotga o'tishning moliyaviy sektor bilan bog'liqligi keng yoritilgan. Carney iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni saqlash uchun moliyaviy institutlar va xususiy sektorning hamkorligini ko'rsatadi. U yashil investitsiyalar, uglerod bozorlarining rivojlanishi, va yashil obligatsiyalar orqali investitsiya oqimlarini yo'naltirish zarurligini ta'kidlaydi. Moliyaviy sektor, shuningdek, barqaror rivojlanish uchun yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi, chunki u moliyaviy resurslarni ekologik toza va barqaror tashabbuslarga yo'naltirish imkoniyatini yaratadi.

Carney asaridan olingan asosiy natija shundan iboratki, yashil iqtisodiyotga o'tishda moliyaviy sektorning roli nihoyatda muhim. Bunday tahlilni o'zimizning amaliyotimizga tatbiq qilish orqali biz moliyaviy institutlar va hukumatlar hamkorligini rivojlantirishga e'tibor qaratishimiz kerak. Misol uchun, yashil obligatsiyalar va uglerod bozorlarini yaratish orqali, O'zbekistonda ham qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiyalarni jalb qilish mumkin. Bunda, moliyaviy sektordan foydalanish orqali iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, yashil iqtisodiyotga o'tishni ta'minlash imkoniyati ochiladi.

UNEPning 2011-yildagi hisobotida yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy yo'llari ko'rsatilgan. Hisobotda qayd etilishicha, yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun siyosiy iroda va xalqaro hamkorlikning zarurati alohida ta'kidlangan. Boshqa tahlillar bilan solishtirganda, UNEP yashil iqtisodiyotga o'tishning faqat ekologik va iqtisodiy sohalarda emas, balki ijtimoiy siyosatda ham to'g'ri yondashuvni talab qilishini ko'rsatadi. Ularning fikricha, yashil iqtisodiyotga o'tishda barqaror rivojlanishning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy uchta asosiy omilni muvozanatli ravishda birlashtirish zarur.

UNEPning tahlili yashil iqtisodiyotga o'tishning siyosiy va ijtimoiy jihatlarini o'rganishni muhim deb hisoblaydi. O'zbekistonda ham, yashil iqtisodiyotga o'tishda yashil siyosatni amalga oshirishda ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni saqlash zarur. Aynan shunday yondashuvni amalga oshirish orqali biz ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, barqaror energiya resurslarini rivojlantirish va aholining turmush darajasini yaxshilashni bir vaqtning o'zida ta'minlashimiz mumkin. Misol uchun, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni joriy qilish orqali iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlash mumkin.

Yuqoridagi tahlillarni birlashtirgan holda, yashil iqtisodiyotga o'tishda iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni saqlashda bir nechta asosiy jihatlarga e'tibor qaratish zarur:

1. Ijtimoiy barqarorlik: ILOning tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o'tish faqat ekologik masalalar bilan bog'liq emas, balki ijtimoiy muvozanatni saqlash ham muhim. Bu, yangi ish o'rinlarini yaratish va mavjud ish o'rinlarini himoya qilishni o'z ichiga oladi.

2. Moliyaviy va investitsion yondashuvlar: Carney va UNEPning tahlillari moliyaviy sektor va xususiy sektorning hamkorligi, shuningdek, investitsiyalarning yashil iqtisodiyotga

yo'naltirilishi kerakligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuvlar orqali iqtisodiy o'sish va ekologik xavfsizlikni birlashtirish mumkin.

3. Siyosiy iroda va xalqaro hamkorlik: UNEPning tahlili barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida siyosiy iroda va xalqaro hamkorlikning muhimligini ko'rsatadi. O'zbekiston uchun bu xalqaro tajribalarni o'rganib, o'z siyosatlarini shakllantirishda yordam beradi.

Xulosa va takliflar.

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni, ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishni uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO), Mark Carney va UNEP kabi mutaxassislarning tahlillari, yashil iqtisodiyotning faqat ekologik tomonini emas, balki iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy jihatlarini ham alohida ko'rsatmoqda. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun siyosiy iroda, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy barqarorlikni saqlash zarur. Yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat ekologik masalalarni hal qilish, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, iqtisodiy barqarorlikni saqlash va ijtimoiy tenglikni ta'minlashni ham o'z ichiga oladi.

Yashil iqtisodiyotga o'tishda muvaffaqiyatga erishish uchun bir nechta asosiy omillarni inobatga olish zarur. Avvalo, moliyaviy resurslarni to'g'ri taqsimlash va yashil investitsiyalarni ko'paytirish uchun maxsus moliyaviy instrumentlar, masalan, yashil obligatsiyalarni joriy etish kerak. Shu bilan birga, qayta tayyorlash va yangi kasblarga o'qitish dasturlarini kuchaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etishda kadrlar tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Siyosiy iroda va xalqaro hamkorlik ham yashil iqtisodiyotga o'tishda muhim rol o'ynaydi, chunki bu jarayonni amalga oshirishda hukumatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi samarali hamkorlik zarur.

Yashil iqtisodiyotga o'tish faqat ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan cheklanmasdan, ijtimoiy adolatni ham e'tiborga olishi kerak. Bu, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yangi ish o'rinlarini yaratish va mavjud ish o'rinlarini himoya qilishda muhimdir. Shu tarzda, yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy o'sish va ijtimoiy tenglikni ham bir vaqtda rivojlantiradi.

Adabiyotlar/Jumepamyra/References:

- Gazeta.uz. (2024) Prezident 2025-yilni qanday nomladi.*
- ILO (2018) International Labour Organization. World Employment and Social Outlook: Greening with Jobs.*
- Khasanov B. S. (2022) Ekologik xavfsizlik va yashil siyosatning iqtisodiy jihatlari.*
- Kun.uz. (2024) 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi.*
- Mark Carney. (2015) Breaking the Tragedy of the Horizon – Climate Change and Financial Stability.*
- OECD (2011) Organisation for Economic Co-operation and Development. Towards Green Growth.*
- Qalampir.uz. (2024) O'zbekistonda 2025-yilga qanday nom berilishi e'lon qilindi.*
- UNEP (2011) United Nations Environment Programme. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication.*
- Vaxabov A.V. Xajibakiyev Sh. X. (2024) Yashil iqtisodiyot, Darslik, Toshkent.*
- WB (2020) World Bank. Green Economy and Jobs.*
- Zokirov Sh. H. (2021) Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish: nazariya va amaliyot.*